

DILRABO NORQULOVA

**QUYOSHGA YAQIN
MASKAN**

She'rlar



TOSHKENT
«ADIB» NASHRIYOTI
2011

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84(5Ў)6

N79

*Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan nashrga tavsiya
etilgan.*

Norqulova, Dilrabo.

N79

Quyoshga yaqin maskan: she'rlar /

D.Norqulova. — ADIB nashriyoti, 2011. — 56 b.

ISBN 978-9943-317-48-0

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84(5Ў)6

ISBN 978-9943-317-48-0

©ADIB» nashriyoti, 2011

©D. Norqulova, 2011



EZGU AN'ANA

Yurtimizning turli hududlarida yashab, she'r va hikoyalar mashq qilib kelayotgan, adabiyot ostonasiga o'zlarining ilk qadamlarini qo'yayotgan iqtidorli yoshlarimiz minglab topiladi. Bugun boshlovchi misralar yozib, tahririyatlarga yoki ustoz adiblar qoshiga iymانبgina borayotgan bu yigit-qizlar ertangi kunimizning taniqli yozuvchi va shoir-lariga aylansa, ajab emas.

Muhtaram Yurtboshimizning "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli risolasida "agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlod-lar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbi-yalashimiz kerak", degan fikr asosiy maqsad-muddaolardan biri sifatida alohida ta'kidlangani bejiz emas. Bugungi barcha g'amxo'rlik va e'tibor ana shu maqsad ro'yobiga qaratilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan daslabki kunlar-danoq yoshlar siyosati eng birlamchi masalalardan biriga aylandi. Mana, yigirma yildirki, ushbu muhim masala kun tartibidan tushgani yo'q. Aksincha, yildan yilga yoshlar qatlamiga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Shu ma'noda, o'tkir didli, badiiy saviyasi yuksak yosh ijodkorlarni tarbiyalash

uchun yaratilgan bugungi sharoitlarni hech bir davr bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Ana shu yuksak e'tibor samarasi o'laroq, o'tgan 2010 yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va "Ijod" jamoat fondi tomonidan bir guruh yosh shoir, yozuvchi, publitsist va adabiyotshunoslarning ilk kitoblari nashr etilgani va barcha ta'lim muassasalariga bepul tarqatilganidan yurt-doshlarimiz yaxshi xabardor. Ezgu an'anaga aylanib ulgur-gan "Birinci kitobim" loyihasi doirasida bu yil ham badiiy adabiyotning turli yo'nalishlarida ijod qilib kelayotgan iste'dodli yoshlarning ilk kitoblari nashrga tayyorlandi. Ahamiyatli tomoni shundaki, bu ijodkorlar "Do'rmon" ijod uyida o'tkazilgan seminarlarda tanlab-saralab olindi, qo'l-yozmalar o'sha joyning o'zida - ustoz va shogirdlik an'anasi asosida qiyomiga yetkazildi.

Qo'lingizdagi mana shu kitob ham o'sha mashaqqatli va serzavq mehnatning mevasi, umidli yosh ijodkorning dastlabki qadamidir.



YURTIM

Hali bu dunyoning kengliklarida,
Bir tekis tarqalib ketmasdan odam.
Amu bilan Sirning sohillarida
Ajdodlar yashagan ulug‘, mukarram.

Hali cheksiz, ulkan ummonlar osha
Yangi qit‘alarga ochilmasdan yo‘l,
Buyuk bobolarim donishmand yashab,
Uzoq koinotga uzatgandi qo‘l.

Bugun ulug‘ elning erki, g‘ururi,
Dunyolarga qadar nomidir baland.
Dilda vatan mehri, ishq, sururi,
Jondan yaqin bo‘lgan yurakka payvand.

Men sening farzanding, ey Ona—Vatan,
Nuri diydami o‘zing, qarog‘im o‘zing.
Ozod shamollarda hilpiragan sha‘n,
Yurakka tikilgan bayrog‘im o‘zing!



IFTIXOR

Vatan, oq sutingni oqlayman bir kun,
Ortingdan go'dakdek ergashib yurib.
Go'zal chehrang, issiq nigohing uchun
Shodlanib yashayman yuragim urib.

Men faxr etaman, dilda iftixor,
Yurakka otash, cho'g' tashlagan o'zing!
Sog'inch yarqiragan yulduzlaring bor,
Ishon, yulduzlarning Vatani o'zing!

Quyoshga yaqinroq maskaningdanman,
Janub oftobida qoraygan yuzim.
Oq suting oqlayman Vatanim, chindan,
Oppoq bayroq bo'lib hilpirar so'zim!

Saodat bog'idan menga berding yo'l,
Ilohim ayirma shu qutlug' safdan.
Men sening bog'ingda o'sayotgan gul,
Nechun senga qilluq qilmayin, Vatan!



RANGLAR

Ranglar nima? Nimadir jilo?
Yo ko'zlarning surgan xayoli?
Beholgina turibdi xino,
Barmoqlarga bordek savoli.

Ranglar nima? Nimadir jilo?
Nega qizil ufqning yuzi?
Yetti rangda tovlanib turar
Kamalakning birgina o'zi.

Ranglar nima? Nimadir jilo?
Ona yurtning jamolimi u?
Vatan, gulgun chehralaringda
Mangulik bor, sen abad, mangu.

Sendan bildim — ranglar ekan nur,
Ular erkning timsoli ekan.
Shundan ekan ilohiy surur,
U — oy-quyosh visoli ekan.



POYGA

Ot kishnaydi.
Kun ogʻgan payti
Zirillaydi adoqsiz yaylov.
Keng daradan tulporlar qaytdi,
«Hayt, hayt!» deya qichqirdi birov.

Chapdast yigit aylanib oʻtib,
Yugan urar asov aygʻirga.
Biri esa egardan tutib,
Shartta minar qorabayirga.

Koʻtarilar qiy-chuv va suron,
Yuraklar ham chopar gupurib.
Otlar yelar huv qirlar tomon,
Olislashar dupur-dupuri.

Qamchi tushar ot yagʻriniga,
Keng daralar ortga chopadi.
Oti oʻzgan gʻolib egniga
Bakovullar sarpo yopadi.



ANDISHA

Mendan xizimatingni tutmaysan darig‘,
Qancha dardim bo‘lsa eshitasan jim.
Ammo sen o‘z so‘zu fikringdan forig‘,
Senga achinaman hissiz qalamim.

Nahot tuyg‘ulardan yonmasa bu tan,
Ko‘ngil daftarida bo‘lmasa bitik?!
Achinib ketaman senga daf‘atan,
Shundanmi, qalamim, boshginang egik.

Kimlardir g‘iybatdan olar alamin,
Kimlardir beparvo yashar hamisha.
Yo‘q-yo‘q, achinmayman senga, qalamim,
Hissiz odamlardan qilgum andisha.





TUPROQ ISI

Derazamni ochaman tongda,
Sof havodan yayraydi tanim.
Gullarning xush ifori bilan
Uyga kirib kelar Vatanim.

Bobotog‘dan mo‘ralar quyosh,
Yonboshlaydi cho‘pon singari.
So‘ngra zarrin nur sochib ketar
Daralardan dalalar sari.

Yig‘iladi bir suruv bulut,
Soyasida qoladi adir.
Maysazorni siypalab asta
Yog‘ib o‘tar bir zumlik yomg‘ir.

Junjikadi gullarning bargi,
Doira chalar momoguldirak.
Ko‘kda esa yal-yal tovlanar
Atlas kabi rangin kamalak.

Tuproq isin simirar to‘yib
Beshikdagi go‘dakka qadar.
U Vatanning bo‘yidir asli,
Ona yerning bag‘ridan kelar.



UCH KUN...

Uch kundirki, xayollarimning
Rishtalari har yon parishon.
Sekinlaydi vaqt ham tobora,
Bir o'y menga bermaydi omon.

Uch kundirki, kelishing mumkin
Bo'lgan yo'llar aldovidaman.
Muhabbat va nafrat atalmish
Lashkarlarning qurshovidaman.

Uch kundirki, labimni tishlab
Qonataman, bu qanday kutish?
Yoki bundan ortiq sevaymi
Yo kerakmi asta unutish.

Uch kundirki, intizor, ilhaq
Yo'lga qarab vaqt o'tkazaman.
Yana sabr, sabr haqida
Irodali she'rlar yozaman.

Uch kundirki, ortar iztirob
Va ilinjim ortib boradir.
Umidlarim tuyular sarob
Ko'zlarimda bitta xavotir.



SUV

Suvni xafa qildi anavi odam,
Huzurida yomon gap aytib qo'ydi.
Bu zilol jilg'aning og'ridi dili,
Badani jimirlab, vujudi kuydi.

Bir sahroyi esa maqtadi uni,
Shukr, deb tomchisin ko'ziga surdi.
Chehrasi ochildi shunda jilg'aning,
O'ynoqlab daralar sari yugurdi.

Odamlar! Ko'ngilni asrang, ko'ngilni,
Faqat ezgu so'zga to'lsin bu olam.
Top-toza suvlarga yaxshi gap ayting,
Aytmang hatto yomon tushingizni ham!





BAHOR YOMG'IRI

O, bahor yomg'iri, bahor yomg'iri,
Bunchalar toshqinsan, shoshqinsan buncha.
Avval chehralardan g'ubor sidirib,
Zaminga talpinib shodlanding shuncha.

O, bahor yomg'iri, bahor yomg'iri,
Senga ehtiromim, havasim bisyor.
Dardimni oladi tomching shitiri,
To'xta, shiddatkorim, senga arzim bor.

O, bahor yomg'iri, bahor yomg'iri,
Borliq tabiatni cho'miltirding tez.
Qani, yuvilsaydi qalblarning kiri,
Afsus, yuraklarga yog'maysan, afsus.

Yog'sang, bo'lmasmidi soxta hissiyot,
O'charmidi balki soxta yonishlar.
Balki yuraklarda boshlanib hayot,
Qurirdi ko'zyoshga bo'kkan bolishlar.



BAHORNING BOSHLANISHI

Birdan gullavorar
Surxonda bodom,
Ko'ngil qamashadi
Nurdan, ziyodan.
Osmondagi oppoq
Parqu bulutlar
Engashib suv ichar
Amudaryodan.
Yerdan bosh ko'tarar
Nimjon maysalar,
Boychechak qirlarga
To'shaydi gilam.
Bahor boshlanadi
Surxondaryodan
Voha bo'ylab yashnar
Yam-yashil ko'klam...





KECHIRMASANG

Kechirmasang agarda meni,
O'tolmasang gunohlarimdan,
Armon o'g'irlagan sevgini
Qaytib bermas bu dunyo hech ham.

So'ngra olam o'zgarsa asta,
Shu qismatga ko'ndirsa hayot,
Bu dunyoda ikki dilxasta
Topolmasak birgina najot.

Ikki uyning ostonasida
Ko'mib qo'ysak bitta sevgini,
Bundan ortiq musibat bormi
Kechirolmay yashasang meni.





SHAM

Sham. Pilikdan boshida chiroq,
O'zi durkun, qomati mavzun.
Kosasida mavjlangan qirg'oq,
Hijron tuni judayam uzun.

Sham. Zulfini sumanbar yoyib,
Boqib turar har yon parishon.
Ko'z yoshlari tushar sirg'alib,
Ko'ksi bo'lar g'amlarga nishon.

Sham. Yonadi, yongani sayin
Zulmat chekinadi yiroqqa.
Endi ado bo'lishi tayin,
Oshiq kabi mahkum firoqqa.

Sham. Shunchalar yongani bilan
Oyog'ining osti qorong'u.
Biz ham unga o'xshaymiz chindan,
Xuddi bizning o'zimizdir u.



SOG'INCH

Sadafga yarashmas tillohal ko'ylak,
Og'izga sig'maydi o'ttiz uchta tish.
Kattakon elakdek bag'ritosh falak,
Qizgina boshimdan elaydi tashvish.

Mayda-chuyda dardlar, havaskor mardlar
O'ynaydi ovora qilib odamni.
Yo'l qarab ki prigim bog'laydi gardlar,
Sog'inib ketyapman yolg'iz dadamni.

Faqat o'ksimagin, ozurda yurak,
Faqat qalqimasdan sobit tur, jonim.
Nazarimda meni sog'insa kerak,
Toshkent taraflarga qarab Surxonim.





SALOM. XAYR

“Salom. Xayr”. Bor-yo‘g‘i shu,
Hol-u ahvol so‘rash yo‘q.
Yo lablarda sirli kulgu,
Yo boshqacha qarash yo‘q.

Parvo qilmay, qo‘shni qizga
Chimrilgani chimrilgan.
Muallima opamizga
Termulgani termulgan.

Tanaffusdek o‘tar-ketar
Go‘zal yoshlik sururi.
Yoqasidan bir kun tutar
Ilk sevgining g‘ururi.

Fikru zikri a‘lo baho,
Begonadir uyqular.
O‘ylantirmas uni aslo
Bahosi yo‘q tuyg‘ular.

Aytganim yo‘q u-bu kimga,
Ich-ichimdan suyganman.
Daftargamas yuragimga
Ismin yozib qo‘yganman.



ERTAK

Bor ediyu yo‘q edi,
Qiz tushmagur sho‘x edi.
Qoshi tarang kamondek,
Kipriklari o‘q edi.

Yigit — bek o‘g‘il edi,
Pokiza ko‘ngil edi.
Otasin eshigida
Bo‘ri bakovul edi.

Sevgi sevinchi edi,
Ayriliq — qamchi edi.
Qishloq to‘la chumchuqqa,
Chumchuq — chaqimchi edi.

Ikki dil sarson edi,
Muhabbat — arzon edi.
Bilarsiz, tosh yuraklar,
Kim tarozibon edi.

Boshqa qalliq saylandi,
Yigit shunga uylandi.
Odamzoddan bezdi qiz
Va pariga aylandi.



Bor edi-yu, yo‘q edi,
Yurak yashnoq cho‘g‘ edi.
Pari bo‘lmayman, derdim,
Mening ko‘nglim to‘q edi.





KITOB O‘QIMAGAN BOLALAR

Bir alam yuragim tirnagan,
Yuragim lim to‘la nolalar:
Sababchi — siz, ko‘nglim bilmagan —
Kitob o‘qimagan bolalar.

“Mehrobdan chayon”ni qoldirib,
Qodiriy bog‘iga yo‘l olar.
Ma’yus qarab qolar Qodiriy ...
Kitob o‘qimagan bolalar.

Sevishar tog‘larni, qirlarni,
Bosh chayqab tebranar lolalar.
Bilmaslar qadimiy sirlarni
Kitob o‘qimagan bolalar.

Ne sabab kitobdan qo‘rqasiz,
Bolari gul o‘qib, bol olar.
Yuzta so‘z bilasiz zo‘rg‘a siz,
Kitob o‘qimagan bolalar.

Befarqlik yuragim tirnagan,
Ko‘zimda limmo-lim jolalar.
Kinodan boshqaga kirmagan,
Kitob o‘qimagan bolalar.



TANISH BELGILAR

Kimningdir qaddi tik, ovozi o'ktam,
Odim otishi ham qomatiga mos.
Alif gavdasiga ko'zing tushgan dam
Undov belgisini eslaysan ro'y-rost.

Notovon kimsaning qaddi mudom xam,
Yelkasiga ortgan zildek zavolni.
Yoydek gavdasiga ko'zing tushgan dam
Eslaysan so'roqni — mangu savolni...





ELIM DEB

Elim deb qo'lga soz oldim,
Elim deb kuylagan menman.
Navosozu sarafrozlar
Bog'iga bo'ylagan menman.
Elim obod, elim ozod,
Ozod diyorda dilim shod.
Maskanimga boqib xumor,
Termulib to'ymagan menman.
Mustaqillik berib imkon,
Har qadamda terib imkon,
Gul terib gullar ichinda,
Gul-u gul o'ynagan menman.
Hapqirib dil tun kechalar,
Xushyor bo'libon nechalar,
O'z-o'zimga pichirlab,
O'zimga so'ylagan menman.
Otam deb men seni tutdim,
Onam deb madh etib o'tdim.
O'zimni o'ylagan chog'da
O'zingni o'ylagan menman.



EY JON

“SOCHINGNI SAVDOSI TUSHDI...”

Bobur

Boshingizga sochimning savdosi tushsin, ey jon,
Savdosi tushsa, albat, g‘avg‘osi tushsin, ey jon.

Jon cheking, afg‘on cheking, majnunim bo‘ling manim,
Taqdirimizga ishqning sahrosi tushsin, ey jon.

Suymoq borki, kuymoq bor, kuygan ko‘ngil falakda,
Yoningizga osmonning Zuhrosi tushsin, ey jon.

Ishq azobi muqaddas, ishq sharobi muqaddas,
Qoshingizga visolning safosi tushsin, ey jon.

Qaro sochim qadriga yetmay ketar bo‘lsangiz,
Boshingizga qoshimning qarosi tushsin, ey jon!



SHUKRONA

Elak elaydi momo,
Elanadi elagi.
Yurak elanar go'yo,
Yurakdagi oq tilagi.

Elak elaydi momo,
Suprasi chosh bo'ladi.
O'tmishin o'ylab goho
Ko'zlari yosh bo'ladi.

Elak elaydi momo,
Bir nuqtaga tikilib.
Elakdan o'tar dunyo,
Yulduzchalar to'kilib...

Elak elaydi momo,
Yodida taqchil kunlar.
Zamon qaro, kun qaro...
Qayda edi bu unlar.

Elak elaydi momo,
Supra borar qabarib.
Oqarib borar samo,
Ko'ngil borar oqarib...



Elak elaydi momo,
Ko'z yoshi dona-dona.
Labida oydin duo,
Duosida shukrona.





SHAMOL SHOSHDI

Shamol shoshdi.
Bulutlar toshdi.
Sim-sim yog'di ko'klam tuyg'usi.
Ming asrki, mudragan toshning
Ming ko'zidan qochdi uyqusi.

Namxush havo yoyildi asta,
To'rg'ay ko'ngli ketdi qabarib.
Naychalarga aylanib hislar
Ko'zyosh to'kdi bag'rini yorib.

Rangin durra tang'idi osmon,
So'ng tovlandi ko'kda kamalak.
Gul bargidek harir, parishon
Behol uchar-qo'nar kapalak.



BAHORIMNI KO'RMADINGIZMI

Siz yo'llar tanobin tortgan sayyohsiz,
Kiyik so'qmoqlardan yurmadingizmi?
Siz yerdan ogohsiz, ko'kdan ogohsiz,
Mening bahorimni ko'rmadingizmi?

Dunyo tilsimlari qoshingizda jam,
Nigohingiz tiyrak yulduzlardan ham.
Ko'pni ko'rgan inson, ey donish odam,
Mening bahorimni ko'rmadingizmi?

Tegrangizda tog'lar cho'kmishlar qator,
Jilg'alar ko'zyoshin to'kmishlar qator,
So'roqlar bag'rimni so'kmishlar qator,
Mening bahorimni ko'rmadingizmi?

Bahor sellaridek toshqin, shahdilisiz,
Sulaymon otadek tojli-taxtlisiz,
Ayting, buncha xursand, buncha baxtlisiz?
Mening bahorimni ko'rmadingizmi?



ZAMONAVIY SHE'R

O'smirmiz-da, yoshmiz-da,
Kirdi-chiqdi esimiz.
G'udranar qo'l telefon:
Sendan keldi SMS.

Qisqartirib salomni
«As.» deya yozasan.
Aytadigan gaping yo'q,
Faqat uyqum buzasan.

Quloq bilan sevar qiz,
Bo'lmasmi she'r o'qisang.
Yo ko'rmagan tushingni
Ertak qilib to'qisang.

Men ham jahl ustida
Tugmachani bosaman.
Qisqartirib salomni
“Asal. kim” deb yozaman.



OQ TERAQMI, KO'K TERAQ

“Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?”
Bobo aytar: “Mengami,
Olmos qilichim kerak”

“Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?”
Momo aytar: “Zerikdim,
Menga o'z tinchim kerak!”

“Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?”
Aka aytar: “Sogindim,
Munis egachim kerak!”

“Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?”
Mendan so'rayapsizmi?
Chindan so'rayapsizmi?
Menga ilk sevgim kerak,
O'zimning tengim kerak!



UMIDIM

Qani, hey, yo'l boshla, umidim,
Yelkamga qo'l tashla, umidim.

Sen mening ishongan bog'imsan,
Dugonam, do'stim, o'rtog'imsan.

Yurakda o'chimsan, umidim,
Qudratim, kuchimsan, umidim.

Sen bilan kecha ham charog'on,
Sen bilan hayotim farovon.

Suv ichar ildizim — umidim,
Sen — yo'lchi yulduzim — umidim

Sen borsan — bog'imda tarovat,
Sen borsan — dilimda harorat.

Yor bo'lg'in jon qadar, umidim,
Eng so'nggi on qadar, umidim!



QISHLOQ BILAN XAYRLASHUV

Ketar chog'im qishloqdan
Tog'lar engashib qoldi.
Chopib bordi buloqlar,
Yo'llar ergashib qoldi.

Tebrandi oq teraklar,
Tilandi pok tilaklar,
Qishloq to'la yuraklar —
Dillar ergashib qoldi.

Ko'nglim bo'ldi boshqacha,
Bir qarasam, shoshgancha —
Surxonimdan Shoshgacha
Gullar ergashib qoldi.

Qishloqqinam, xayr-xush,
Gunohim bo'lsa, kechir,
Agar meni sog'insang,
Oymomoga suv ichir!

Yuragimga sayrashni
O'rgatding, she'r bityapman.
Men olisga, o'zingni
Sog'ingani ketyapman.



SEVMAGANI SEVIMLI

Bormoqchiydim yoningga,
Yo'limni to'sdi bulut.
Borma, dedi, u — sevmas,
Ismini ham tez unut!

Yo'lga chiqmoqchi edim,
Yo'limni to'sdi shamol.
Borma, dedi, u — sevmas,
Sevging qismati — zavol.

Endi otlangan edim,
Yo'limni to'sdi quyosh.
Borma, dedi, u — sevmas,
Uning ko'ngli chaqirtosh.

Nima qilay o'shaning
Sezmagani sevimli.
Loqaydligi yoqimli,
Sevmagani sevimli.



VATAN BARHAYOT

Zamin qopqasin qoqib
Otlar o'tgan bu yerdan.
Ot ustida bahodir
Zotlar o'tgan bu yerdan.

Ot ortidan ergashib
Toylar o'tgan bu yerdan.
Goh o'zandan adashib
Soylar o'tgan bu yerdan.

O'tgan shaddod bahorlar,
Kuzlar o'tgan bu yerdan.
Qizg'aldoqday iymanib
Qizlar o'tgan bu yerdan.

Ehhe, kimlar o'tmagan,
Ellar o'tgan bu yerdan.
Xarsangni dumalatib
Sellar o'tgan bu yerdan.

Adirlarni oralab
Karvon o'tgan bu yerdan.
Bu yerdan zamon o'tgan,
Davron o'tgan bu yerdan.



Birgina elim sobit,
Yurtim borki, bor hayot.
Vatan qoldi abadiy,
Faqat Vatan barhayot!

TILSIM

Afsonoviy orzu ushalib borar,
Inson tafakkuri samoni quchdi.
Bugun te mirqushlar bulutni yorar,
Uchar gilamchada odamzod uchdi.

Ertak tuyulardi «Oynai jahon»
Ko'zgu qarshisida lol edi Farhod.
Zangori ekranni kashf etdi inson,
Oynada aks etar tugal bu hayot.

Ne-ne mo'jizalar bugun oddiy gap,
Inson izlanishda yashaydi albat.
Lekin hamon oshiq holi murakkab,
Bugun ham tilsimdir o'sha muhabbat.



EHTIMOL

Yulduzlar to‘zoni ichra bir uchqun
Goh yonib-o‘chadi, milt-milt qiladi.
Yog‘du tezligidan xayolim uchqur —
Koinot bahrida yeladi.

Nima u? Yoritqich yoki sayyora,
Yoki Atoruddan ko‘chgan toshmikin?
Yo o‘zga olamdan elchi — tayyora,
Yoxud ayro tushgan bir yo‘ldoshmikin?

Balki kurramizning egizagi u,
Ehtimol unda ham qaynaydi hayot.
Unda ham gurkirab yashnaydi orzu,
Unda ham yangraydi alyor va bayot.

Kim bilar, Dilrabo degan bir qizcha,
Yo‘l qarab, o‘ylarga tolib turgandir.
Kim bilsin — ko‘zida porlab yulduzcha
Sevgisini she’rga solib turgandir.

Ehtimol u menga o‘xshar judayam,
U ham yaxshilikni sog‘inar doim.
Istagim, u hecham chekmasin alam,
Tilagim, u baxtli bo‘lsin, iloyim!



TILAK

Kim yaxshi, kim yomon — xudoga ayon,
Muhimi, o'zingga savoling bo'lsin.
Yaxshi yigit, yo'ldan qaytma hech qachon,
Shu qiz sevar yoring, ayoling bo'lsin!

Endi uchib-qo'nma shoxdan-shoxlarga,
Endi sabab bo'lma afsus-ohlarga.
Sayhoning aylansin durkun bog'larga,
Farzandlaring umid niholing bo'lsin.

Bolishda be mahal qolmasin boshing,
Boshingdan o'rgilsin umr yo'ldoshing.
Doim totli bo'lsin shu suygan oshing,
Muhabbating — avji kamoling bo'lsin.

Anvoyi atirlar taratgan shu qiz,
Qarasang, ko'zingni yayratgan shu qiz,
Amallab o'ziga qaratgan shu qiz
Menday sevsa, mayli, haloling bo'lsin!



UNING

Bilakmas, bormoqqa urildi kishan,
Sening asiringman, sening tutquning.
Yuragim orziqib, seskandim birdan —
Ko‘zlari boshqacha edi-da Uning.

Ko‘ngil tulporiga bormikin ega,
Kishani bo‘larmi asov tuyg‘uning.
Nigohingni chetga olasan nega?
Ko‘zlari boshqacha edimi Uning?





KELMASANG KELMA

Ko'klamlar keldilar qaldiraq chalib,
Sen ko'nglim qaqrog'in bilmasang bilma.
Boshqa ishim yo'qmi sevgidan nolib...
Kelmasang kelma.

Yoz keldi, atirgul ko'tarib bir kun,
Gulbargdek dilxunman, dilxunman, dilxun.
Mayliga, sen meni norasta bilgin,
Kelmasang kelma.

Turfa iforlarin socha keldi kuz,
Menga quchog'ini ocha keldi kuz.
Sen bugun kechikding, kecha keldi kuz,
Kelmasang kelma.

Hali qish olisda, uyquda hali,
Qahraton kelguncha dilga ketali.
Sensiz ham dil bilan gulga yetali,
Kelmasang kelma.



O'RIMDA

Xirmon ko'tardi javzo,
Bug'doyga o'roq tushdi.
Yaraqladi yangi oy,
Bedana hurkib uchdi.

O'roq tortadi erkak,
Poya eshar ayoli.
Uvatlarda jonsarak
G'imirlaydi chumoli.

Ayol qarar erkakka,
Manglayini sidirar.
Bug'doyzor aro yakkash
Qizg'aldoqni qidirar.





TAKLIFNOMA

“Visol oqshomi”ga taklif etishib,
“Lutfan” parcha qog‘oz tashlab ketishdi.
Mening qismatimni qaro bitishib,
Mening ko‘zlarimni yoshlab ketishdi.

Turmush nashidasi sizga buyursin,
G‘olibsiz, tilayman baxtu farog‘at.
... Yashirdim. Nazardan chetroqqa tursin
Shahid muhabbatdan kelgan qoraxat.





SOY YUZIDA

Soy yuzida balqdi oy,
Halqachalar taqdi oy.
Kumush tanga tashladim,
Titrab-titrab qalqdi oy.

Oyxon, sen-da oyqizsan,
Bu yerlardan olissan.
Shuncha go‘zal bo‘lsang ham
Nega buncha yolg‘izsan?

Oy aytdi: jo‘shmoq kerak,
Jonga jon qo‘shmoq kerak.
Havolanmay vaqtida
Osmondan tushmoq kerak...





VATAN DESAM

Vatan desam, ko'z oldinga
Bog'lar kelar, bog'lar kelar.
Qora chakmon, oq sallali
Tog'lar kelar, tog'lar kelar.
Bog' bag'rida larzon urgan
Shoxlar kelar, shoxlar kelar.
Tog' bag'ridan sirqiragan
Nuqraday irmoqlar kelar.

Qatra suvda hayot aksi,
Daryo aziz, daryo aziz.
Vatanga gar dahli bo'lsa,
Sahro aziz, sahro aziz.
Yurtga yolg'iz joni fido
Yakto aziz, tanho aziz,
Qum ichinda qolib ketgan
Jonfido shiroqlar kelar.

Abu Rayhon yoqdi mash'al,
Yorishdi zim-ziyo dunyo.
Ibn Sino qo'ydi tashxis —
Bir zum topdi davo dunyo.
Shu maskandan topdi irfon,
Neki bo'lsa ravo dunyo,
Bobo, desam osmon to'la
Chaqnagan chiroqlar kelar.



Man-man degan jon hovuchlar
Arslon ila sher oldida,
Nazm mulki egdi boshin
Hazrat Alisher oldida.
Voris bo'lib qarzimiz mo'l
Navosoz ul she'r oldida,
Birlashtirar olamni so'z,
So'llar kelar, sog'lar kelar.

Bobozotlar tafakkuri
Manzilu sarhaddan oshar,
Bul taraf Rumoga yetar,
Ul taraf Mashhaddan oshar.
Oliy nishonning orzusi
Istagi maqsaddan oshar,
Muhaddislar ko'rsatar yo'l,
Isfaxon, Iroqlar kelar.

Te murxonning qudratiga
Binolari guvoh turgay.
Arabshohning nomalari
Zafarlarga izoh turgay.
Kim tarixdan yuz o'girsar
Xato ermas, gunoh turgay,
Te mur desam bilak ushlab
Yaqinu yiroqlar kelar.



Kitob ochsam, o't olgusi
Har safar armonim manim,
Hind yerida bezgak ichra
Qaqshab turar jonim manim,
Dilbar o'zing, dilovar sen,
Sohibi devonim manim,
Og'iz ochsam, ohlar kelar,
Ulug' boburshohlar kelar.

O'tmishing oq-u qarodir,
Erta kun porloq bo'lar,
Osmoning oq, tonglaring pok,
Tole'ing oppoq bo'lar,
Diyorsanki, tangri suygan
Yeru ko'k ogoh bo'lar,
Dilrabo aytgay qo'shiqlar,
Qalbi uyg'oqlar kelar.





KECHIKKAN BAXT

Ma'yus boqar gulzorga
Sarvigulning darchasi.
Tun cho'kkan ko'zlarida
Oyning yarim parchasi.

Allaqanday umid bor
Qiya ochiq eshikda.
Uniqqan darpardasi
Ochilolmay ichikkan.

Sarvigulning soyasi
Keng ayvoniga tushadi.
Shiftda bir juft qaldirg'och
Gir aylanib uchadi.

Olashaqshaq shu hovli,
Shu uy bilan barobar.
Necha yillar qunishib,
So'ng keltirdi xushxabar.

O'tirgan qiz o'rnini
Topganda she'r bitildi.
Shu uyning darvozasi
Kuni-kecha chertildi.



U — DIYDOR

Bilaman u — diydor.
Shu diydor
Bagʻrida ekanmi
bogʻlarning?

Qush boʻlib uchgudek
dil xumor
Koʻngilni dogʻlari
dogʻlaydi.

Bilaman u — diydor.
Shu diydor
Qanotdek osmonning
kiftida.

Zoʻrim yoʻq, zorim bor,
orim bor.
Balkim u yurakning
kaftida.

Bilaman u — diydor.
Shu diydor
Yurakka iztirob,
anduhdir.



Bormasam u beor,
u bezor
Xotira —qulfi yo‘q
sandiqlidir.

Bilaman u — diydor.
Shu diydor
Boshimga balodir,
balodir.

Bu yomon savdodir,
bu — bozor.
Yurakni pallaga
solodir.

Bilaman u — diydor.
Shu diydor
Yuksakroq bo‘lsa ham
tog‘lardan.

Lochin bo‘larmidim
va takror,
Balandlab uchardim
zog‘lardan.

Bilaman u — diydor.
Shu diydor
G‘azoladir gulning
dog‘iga.



Tikanlari bersa-da
ozor
Qumrisi bo'lardim
bog'iga.

Bilaman u — diydor.
Shu diydor
Yo quvonch, yo g'amli
bayotim.

Boshqa yo'l yo'q men uchun
zinhor,
Uning qo'llarida
hayotim.





SIR

Azizim, men senga bir sirni aytsam,
Sira qurimaydi ko'zingda yoshing.
Boshingga osmonlar qulamasa ham
Uni ko'tarishga yetmas bardoshing.

Agarda aytmasam, agar aytmasam,
Ertaga tongimning otishi gumon.
Tiz cho'kib, «Shu rost» deb ichmasam qasam,
Men omon qolmayman, qolmayman omon.

So'rash mumkin oddiy xatoga uzr,
Gunohimga tavba-tazarrular kam.
Sen meni sevishdan qilasan huzur,
Pokiza qalbingda yashnaydi ko'klam.

Mendan esa o'tar bevafoqliklar,
Birgina guvohim o'n uchinchi oy.
Xiyonatlarim ko'p har kun, har safar,
Yana bir guvohim sen bo'lmagan joy.

Endi hukm chiqar iqrор odamga,
Osmonim burjida muncha oylar yo'q.
Har qancha boqmayin bu keng olamga,
Men seni ko'raman, sen yo'q joylar yo'q.



TUSHUNISH

Yer sharining olis nuqtalaridan
Yurt kezgani chiqqan sayyohlar ba'zan
Uchrashib qolar va imolar bilan
Bir-birin ko'nglini tushunar oson.

Lekin ayrimlar bor — bir uyda yashab,
Bitta tilda so'zlab yurar-u, ammo
Xaridor talashgan tujjorga o'xshab
Bir-birin ko'nglini tushunmas aslo.



AZIZ

Shoh uchun arkonu davlat, saltanat, inson aziz,
Dahr eliga adlu insof aylagan sulton aziz.

Be muruvvatlar jahondan ko‘p muruvvat ko‘rdilar,
Garchi odamdan ularga to‘n ila chakmon aziz.

Hech kishini g‘ayri deb hech tafovut qilmadik,
Ul bani odam erurkim, hazrati inson aziz.

Boru yo‘q, yaxshi-yomonlardan shikoyat etmadik,
Har na bo‘lsa, bizga haqdan bo‘lg‘usi farmon aziz.

Jon fido bo‘lsin vatanning cho‘liga, gulzoriga,
Gar tikon sanchilsa, guldin ranjimas bog‘bon aziz.

Biz Vatan mehriga qonmoq istadik tortib jafo,
Shu muqaddas yer, ulug‘ el, lojuvard osmon aziz.

Endi so‘z aytmak munosibdir jahon ayvonida,
Har nafas, har lahza, har on, bizga shu imkon aziz.



MASHRAB G'AZALIGA MUXAMMAS

Men bo'libman ushbu kun tilsim jahonimdin judo,
Yaxshi bir on kelmayin, men yaxshi onimdin judo.
Ro'zg'orim tiyradir, men xonumonimdin judo.
Ey falak, qilding meni ul mehribonimdin judo,
Bulbuli sho'rida yanglig' gulsitonimdin judo.

Gardishingdin ko'zlarim gavharlariga to'ldi qon,
Ro'shnolik qismatim o'lmas ekanmu bir zamon,
Nogohon topding meni, so'ng azob berding yomon,
Naylayin, qilding meni oxir g'aribu notavon,
Mubtaloyi g'am qilib, ko'ksimda jonimdin judo.

Bu ko'ngil mendan judo so'zu sozimga aldanib,
Nolalar qildim, fig'on savtini chaldi andalib,
Ham jahonni barcha g'am, dardini bag'rimga olib,
Qumri yanglig' bandalik tavqini bo'ynimga solib,
Termulib hayron edim sarvi ravonimdin judo.

Tinmayin, ey Dilrabo, faryodu oh urmoq nadur,
G'am, alam qa'rida yolg'iz yig'lab o'ltirmoq nadur,
Baxtki — parda ortida istab uni ko'rmoq nadur.
Kuhba-kuh, sahroba-sahro, Mashrabo, yurmoq nadur,
Chug'zi bevayronadurman, oshyonimdin judo.



MUNDARIJA

Ezgu an'ana.....	3
Yurtim.....	5
Iftixor.....	6
Ranglar.....	7
Poyga.....	8
Andisha.....	9
Tuproq isi.....	10
Uch kun.....	11
Suv.....	12
Bahor yomg'iri.....	13
Bahorning boshlanishi.....	14
Kechirmasang.....	15
Sham.....	16
Sog'inch.....	17
Salom. Xayr.....	18
Ertak.....	19
Kitob o'qimagan bolalar.....	21
Tanish belgilar.....	22
Elim deb.....	23
"Sochingni savdosi tushdi...".....	24
Shukrona.....	25
Shamol shoshdi.....	27



Bahorimni koʻrmadingizmi.....	28
Zamonaviy sheʼr.....	29
Oq terakmi, koʻk terak.....	30
Umidim.....	31
Qishloq bilan xayrlashuv.....	32
Sevmagani sevimli.....	33
Vatan barhayot.....	34
Tilsim.....	35
Ehtimol.....	36
Tilak.....	37
Uning.....	38
Kelmasang kelma.....	39
Oʻrimda.....	40
Taklifnoma.....	41
Soy yuzida.....	42
Vatan desam.....	43
Kechikkan baxt.....	46
U — diydor.....	47
Sir.....	50
Tushunish.....	51
Aziz.....	52
Mashrab gʻazaliga muxammas.....	53

DILRABO NORQULOVA

QUYOSHGA YAQIN MASKAN

Muharrir: *Iqbol Mirzo*

Rassom: *Nazokat Boltaboyeva*

Badiiy muharrir: *Bobur G'iyosov*

Texnik muharrir: *Nodir Suvonov*

Nashr. lits. № 181. 08.12.11. Terishga 02.09.2011 da berildi.

Bosishga ruxsat 02.12.2011 da berildi.

Bichimi 70x90 ¹/₃₂. Ofset usulida bosildi. «Acade my»
garnituras. Shartli b.t. 2,05. Nashr-hisob t. 2,0. Adadi 20.000
nusxa. Buyurtma № 11-867.

«ADIB» nashriyotida tayyorlandi.

100027. Toshkent. O'zbekiston ko'chasi, 16-uy

Tel: (8371) 245-89-24.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida
chop etildi. 100129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30.